

**ONA TILI DARSLARINI TASHKIL QILISHDA INVARIANT VA
VARIATIV DIDAKTIK TUSHUNCHALARNING ILMIIY AMALIY
MOHIYATI.**

Bobomurodov Sirojiddin Mengziyo o'g'li,

Termiz davlat pedagogika institutining "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida
o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati Termiz shahri.

ANNOTATSIYA: Ta'lim jarayonining mukammal tizimini ishlab chiqish va oquv jarayoniga tadbiiq etish lozim. Ta'lim-tarbiya jarayoni qanchalik erta boshlansa ya'ni umumta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan kichik maktab yoshidan yo'lga qo'yilsa, shunchalik ijobiy va samarali bo'ladi.

KALIT SO'Z: Ona tili. Boshlang'ich ta'lim, invariant tushunchalar, a'naviy dars tuzilmalar, integratsiyon yondashuv.

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda ilk variativ tushunchalarni shakllantirishda, har bir o'quvchiga ta'sir ko'rsatadigan pedagogik imkoniyatlar aniqlanadi. Shuningdek, o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga yo'naltirilgan vaziyatlar mazmuni va o'quv topshiriqlariga tuzatishlar kiritiladi.

"Buning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi eng avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonini o'quvchi yoshlarga singdira olishi lozim. Buning uchun hozirgi kunda tabiatga etadigan antropogen ozorni kamaytirishda biolog, geograf, geolog, meteorolog kabi kasb egalarining hamkorligi juda zarurdir".

Bu munosabatlar mohiyatini kichik yoshdagi o'quvchilar ongiga etkaza olish, ularning tabiatga bo'lgan munosabatini to'g'ri ravishda amalga oshira bilishga o'rgatish ta'lim jarayonining asosiy negizini tashkil qiladi. O'quv jarayonining asosi ilmiy nazariy, amaliy bilimlar va mustaqil ishlar jarayonida tushuntiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilk variativ tushunchalarni shakllantirishda dars muhim vosita hisoblanadi. Chunki o'quvchilar o'quv fanlarini o'rganishda o'zining ilmiy dunyoqarashini ma'lum darajada shakllantiradi. Mazkur jarayonda o'qituvchi o'z tafakkuri va faoliyati uyg'unligi orqali darsning samaradorlik darajasiga erishadi.

"Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilk variativ tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni tadbiiq etishning har bir bosqichida tabiiy-ilmiy bilimlarni jadal o'rgatishga xizmat qiladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tanlash o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi". Kreativ yondashuv asosida

boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni takomillashtirishning aniq shakllarini tanlash talab etiladi.

Shuningdek, ona tilini o'qitishda insonning shaxsiy qadr-qimmati Milliy qadriyatlardan kelib chiqadigan ijtimoiy xususiyatlardan biri bo'lib, uni yuksaklikka olib boruvchi oliyjanob bir kuchdir. "Shu jihatdan qadriyatlar insonning ijtimoiy erkinligini va ma'naviy pokligini ta'minlovchi bir buyuk manbadir. Uning o'zi va atrofdagilar uchun foydali, samarali jihatlarining ko'payib borishi nafaqat uning o'zini balki atrofdagilar ma'naviy-axloqiy xislatlarini ham tuzatib boradi" [156; 25-b.].

Unda jamiyat taraqqiyoti talablarida inson qadriyati milliy qadriyatlardan kelib chiqishiga ko'ra ijtimoiy mazmun-mohiyatga egadir, ular insonning ta'lim-tarbiyasi va kundalik mehnat faoliyati natijasida shakllanadi. "Inson shaxsi, ijtimoiy tarbiyadan kelib chiqadigan qadriyatlar, inson ma'naviy-axloqiy meyorlari, xulq-atvori va yurish turishini tartibga solib turadigan bir kuchdir. Buning ta'siri natijasida boshlang'ich sinflarda ilk variativ tushunchalarni shakllantirishda nafaqat xarakteri, balki uning xayoli yangicha mazmun kasb etib, boyib boradi" [90; 67-b.].

Milliy qadriyatlarimiz tiklanishi va takomillashib borishi natijasida "inson qadr-qimmatini e'zozlash uning bilimi, madaniyat saviyasini o'stirish hamda ichki qobilyat-ko'nikmalarini rivojlantirishga keng yo'l ochildi so'nggi o'n yilliklar davomida inson shaxsi, uning haq-huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini muhofaza qilish bo'yicha ancha katta ishlar amalga oshirildi. Bulardan eng diqqatga sazovar jihati oila va maktab hamkorligini kuchaytirish, uning samaradorligi oshirishga qaratilganligidir" [155; 87-b.].

Mavjud yondashuvlarni ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish o'quvchilarda qo'shimcha ilk variativ tushunchalarni shakllantirish jarayonida aniqlangan dolzarb muammolarni bartaraf etishning quyidagi usullarini ishlab chiqish lozim bo'ladi:

qo'shimcha mashg'ulotlar, maxsus innovatsion darslar, atrof-muhitni zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali loyihalash, o'quvchilar jamoatchiligining tabiatni muhofaza qilish monitoringi va nazoratini tashkil etish;

o'quvchilarga ilk variativ tushunchalarni ustuvor shakllantirish yo'nalishlarini to'g'ri belgilash, har bir jarayonda ilmiy - nazariy va amaliy faoliyat elementlarini uyg'unligini ta'minlash va ishtirokchi o'quvchilarda emotsional holatiga ijobiy ta'sirini oshirish;

ta'lim muassasalarining dasturiy va uslubiy ta'minoti zamon talablari darajasida ishlab chiqilmaganligi, dars ishlanmalari o'qitish usul va mavzularining innovatsion

ta'lim texnologiya talablariga mos kelmasligi bilan bog'liq muammolarni hal qilish hamda Milliy o'quv dasturi talablariga javob beradigan umumta'limning o'quv dasturlarini ishlab chiqish;

o'quvchilarning atrof-muhit va ijodiy faoliyatga qiziqishini oshirish va bu boradagi ilmiy-amaliy loyihalarda ishtirokini ta'minlash;

o'quvchilarda ekomadaniyat va ekofaoliyatni tashkil etish borasida umumta'lim muassasalarida olib borilayotgan dasturiy va qo'shimcha ta'limni tashkil etish yuzasidan mavjud nomuvofiqlikni bartaraf etish, bugungi kun talablaridan kelib chiqib, bu jarayonni muvofiqlashtirishning optimal variantini ishlab chiqish;

ta'lim muassasalari qoshida ijtimoiy sherikchilik asosida muvofiqlashtiruvchi hududiy markazni tashkil etish;

hududiy ekotizimni barqarorlashtirishga xizmat qiladigan holatni amalga oshirish jarayonida iqtidorli o'quvchilarni jalb etish hamda mavjud tabiiy resurslaridan maqsadli foydalanish yuzasidan dasturlarni davlat va jamiyat manfaatidan kelib chiqqan holda yoshlar ongi va tafakkuriga mos holda yaratish;

hududiy dastur doirasida ta'lim muassasalarining instrumental-analitik, uslubiy, moddiy-texnik bazasini yaratish va rivojlantirish masalalarini ishlab chiqish.

Albatta, bu jarayonlarni tashki etish uchun ma'lum bir shart-sharoit va mavjud huquqiy asos hamda faol harkat amalga oshirilish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak umumta'lim muassasalarining jamoat va davlat tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari bilan o'zaro aloqalarning amaliy imkoniyatlarini kengaytirish borasida har tomonlama tashkiliy va tarbiyaviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish, uning uzluksiz ishlash mexanizmini yaratish lozim [124].

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda ilk variativ tushunchalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadigan ta'lim tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ilk variativ tushunchalarni shakllantirishning mantiqiy izchilligini o'zida aks ettirgan holda, realizatsiya qilish jarayoni ketma-ketlik tamoyiliga asoslangan bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. "Chunki o'quvchining atrof-muhitni o'rganishga bo'lgan individual qiziqishi, tipologik xususiyati, ta'lim olish va uni o'zida singdirib bilim darajasiga aylanish bosqichlariga e'tibor qaratish aktual ahamiyatga ega bo'lib, ma'lum adaptatsiya jarayonini talab etadi" [158; 56-b.].

O'quv jarayonida ilk variativ tushunchalarni shakllantirish jarayonini ro'yobga chiqarish va ommaviy tadbirlarda davlat va nodavlat hamda jamoat tashkilotlari

bilan birgalikda keng qamrovli tadbirlarda ishtirok etish va hamkorlik dasturlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. O'quvchilarda ilk variativ tushunchalarni shakllantirish tarixiy qadriyatlarini anglashga va unga mansublik hissini uyg'otib, dunyo bilan hamjihatlikda yashashga qodir o'quvchi shaxsini shakllantirishga asos bo'ladi.

"O'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashda tabiat bilan tanishtirishning o'ziga xos ta'limiy-tarbiyaviy xususiyatlari bor. Bu jarayonni turli vositalar, metodlar, yo'llar orqali amalga oshirish mumkin. Masalan, o'quvchilarni darsdan tashqari mashg'ulotlarda ekskusiya, kuzatish, sayr qildirish orqali tabiat bilan tanishtirish mumkin" [151; 19-b.].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. p.f.d. dissertatsiyasi. - T.: 2002.-276 b.
2. Арушанова А.Г. Развитие речи дошкольника (грамматика). Методическое пособие для воспитателей. -М., 1997. - 125 с.
2. Baratov Sh. Kichik yoshdagi o'quvchilar faoliyatini baholash. Toshkent: O'qituvchi, 1992. - 47 b.
4. Богданова Е.А. Индивидуально-личностное развитие подростков в инновационной системе обучения: дисс.... канд.пед.наук. - Самара, 1999. - 175 с.
5. Bobomurodova A.Ya. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin topshiriqlardan foydalanish: pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi. –Toshkent, 1996. -146 b.
6. Bobomurodov S.M. Boshlang'ich sinflar o'quvchilarida ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish metodikasi// Myg'alim ham uzliksez bilimlendiriy, ilmiy-metodika liq jurnal.-Нукус.-2022. 6\1-1 son. -B. 186-190.
7. Bobomurodov S.M. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish texnologiyasi/ Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi/1-jild, 9-son (Yo'pa). 06-September 2023-yil/ www.in-academy.uz/1-5-b.
8. Bobomurodov S.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga oid ilk invariant va variativ tushunchalarni takomillashtirish imkoniyatlari // Journal of innovations in scientific and educational research (Jiser) Volume2, Issue 15. B.563-566.
9. Bobomurodov S.M. Didactic requirements for the formation of primary invariant and variative concepts about nature in primary class students.// American Journal of technology and applied sciences. -P.92-95.